O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 4

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 4
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

4-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 4
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIKNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Xakimova Nafosat Solijon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti.
e-mail: nafosathakomovagmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-0742-333X

Annotatsiya.

Tadqiqotda kognitiv moslashuvchanlikning kognitiv almashtirish, diqqatni moslashuvchan boshqarish, inhibitiv nazorat, ishchi xotira, muammolarni turli strategiyalar asosida hal qilish va yangi vaziyatlarga moslashish kabi komponentlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mazkur komponentlarning maktabgacha yosh davrida rivojlanish xususiyatlari hamda bolaning bilish faoliyati va ijtimoiy moslashuvidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishda o'yin, muammoli vaziyatlar, topshiriqlarni o'zgartirish va ijodiy faoliyatdan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, kognitiv moslashuvchanlik, kognitiv rivojlanish, ijro funksiyalari, diqqat, ishchi xotira, inhibitiv nazorat, kognitiv almashtirish, muammolarni hal qilish, moslashuvchan fikrlash, bilish jarayonlari, maktabgacha ta'lim.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ КОГНИТИВНОЙ ГИБКОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Хакимова Нафосат Солижон кизи

Наманганский государственный педагогический институт, докторант.

Аннотация.

В исследовании рассматриваются такие компоненты когнитивной гибкости, как когнитивное переключение, гибкое управление вниманием, ингибиторный контроль, рабочая память, решение проблем с использованием различных стратегий и адаптация к новым ситуациям. Также раскрываются особенности развития данных компонентов в дошкольном возрасте и их значение для познавательной деятельности и социальной адаптации ребёнка. В статье особое внимание уделяется педагогическим и психологическим возможностям использования игр, проблемных ситуаций, изменения заданий и творческой деятельности для развития когнитивной гибкости.

Ключевые слова: дошкольный возраст, когнитивная гибкость, когнитивное развитие, исполнительные функции, внимание, рабочая память, ингибиторный контроль, когнитивное переключение, решение проблем, гибкое мышление, познавательные процессы, дошкольное образование.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF COGNITIVE FLEXIBILITY IN PRESCHOOL CHILDREN

Xakimova Nafosat Solijon qizi

Namangan State Pedagogical Institute, PhD Student.

Abstract.

The study examines such components of cognitive flexibility as cognitive shifting, flexible attentional control, inhibitory control, working memory, problem-solving through various strategies, and adaptation to new situations. It also explores the developmental characteristics of these components during the preschool years and their significance for children's cognitive activity and social adaptation. The article pays particular attention to the pedagogical and psychological potential of using games, problem situations, task switching, and creative activities to develop cognitive flexibility.

Keywords: preschool age, cognitive flexibility, cognitive development, executive functions, attention, working memory, inhibitory control, cognitive shifting, problem-

solving, flexible thinking, cognitive processes, preschool education.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining muhim jihatlaridan biri ularda kognitiv moslashuvchanlikni shakllantirish va rivojlantirishdir. Kognitiv moslashuvchanlik bolalarning intellektual rivojlanishi, ularning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aniqlashtirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikni turli yo'llar bilan rivojlantirish mumkin, ijodiy faoliyat vositasida rivojlantirish esa samaraliroq hisoblanadi.

"Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalardangina iborat emas, garchi ular asosida paydo bo'lib, rivojlanib borsa-da, bolalarning qobiliyatlarini aniqlashda biror narsani sust bilishi unda qobiliyatning yo'qligidan deb hisoblamasdan, juda ehtiyot bo'lish va xushmuomalalik bilan ish ko'rish kerak. Bunday xatolarga ba'zan biror sabab bilan maktabda yaxshi o'qimagan bo'lajak yirik olimlarga nisbatan ham yo'l qo'yilgan".

Maktabgacha yosh davrida tafakkur harakat, obraz va amaliy tajriba bilan uzviy rivojlanadi. Kreativ-konstruktiv faoliyat jarayonida bola obyektlarning shakli, vazifasi va o'zaro bog'lanishini tahlil qiladi, mavjud qismlarni yangicha kombinatsiyalaydi, qurilayotgan modelni sinovdan o'tkazadi hamda natijaga muvofiq dastlabki rejasini o'zgartiradi. Bunday faoliyat kognitiv moslashuvchanlikning vazifalar o'rtasida almashinish, belgilarni qayta tasniflash, muqobil g'oya ilgari surish va samarasiz strategiyani yangisi bilan almashtirish kabi ko'rsatkichlarini tabiiy sharoitda namoyon etadi. Shunga qaramay, maktabgacha ta'lim amaliyotida konstruktiv topshiriqlar ko'proq tayyor namunani takrorlashga yo'naltiriladi; yechimlar variativligi, bolaning mustaqil tanlovi va refleksiv izohi yetarlicha rag'batlantirilmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kognitiv moslashuvchanlikning pedagogik tabiati, avvalo, ta'limiy vaziyatlarning variativligida ko'rinadi. Agar mashg'ulot faqat ko'rsatilgan namunani aniq takrorlashga asoslangan bo'lsa, bola ijro ketma-ketligini eslab qoladi, biroq harakat usulini o'zgartirishga ehtiyoj sezmaydi. Aksincha, topshiriqda material, shart, obyekt vazifasi yoki natijaga qo'yilgan talab o'zgartirilsa, bola oldingi tajribani yangi vaziyat bilan muvofiqlashtirishiga to'g'ri keladi. Demak, pedagogik jarayonda kognitiv moslashuvchanlikning rivojlanishi topshiriqlar soni bilan emas, ularning fikrlash strategiyasini qayta tashkil etishga undovchi xususiyati bilan belgilanadi.

Mazkur fenomenning pedagogik mohiyati bolaga taqdim etiladigan tanlovning mazmuni bilan ham bog'liq. Formal tanlovda bola rangi yoki tashqi ko'rinishi bilan farqlanadigan, biroq bir xil usulda qo'llanadigan vositalardan birini tanlaydi. Kognitiv tanlov esa muammoni hal qilish usullari o'rtasida qaror qabul qilishni talab etadi. Masalan, qurilmani balandroq qilish uchun detallar sonini oshirish, tayanch maydonini kengaytirish yoki qismlarning joylashuvini o'zgartirish mumkin. Ushbu variantlarning har biri bola tomonidan taxmin qilinishi, sinovdan o'tkazilishi va natija asosida baholanishi lozim. Shundagina tanlov kognitiv moslashuvchanlikning rivojlanish vositasiga aylanadi.

Pedagogning pozitsiyasi ham mazkur jarayonning muhim determinanti hisoblanadi. Direktiv yondashuvda pedagog xatoni ko'rsatadi va to'g'ri yechimni aytib beradi; bola esa tayyor usulni bajaradi. Fasilitativ yondashuvda pedagog "Konstruksiya nima sababdan yiqildi?", "Qaysi qismni o'zgartirish mumkin?", "Boshqa materialdan foydalansak, nima yuz beradi?" kabi ochiq savollar orqali bolaning tahlil va tanlov faoliyatini faollashtiradi. Bunday ko'mak yechimni bolaning o'rniga yaratmaydi, balki uning mavjud bilimlarini yangi kombinatsiyada qo'llashiga imkon beradi. F. R. Qodirova va hammualliflar tomonidan asoslangan bolaga yo'naltirilgan pedagogik jarayon talablari ham uning faolligi, mustaqil tanlovi va ijodiy tashabbusini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi [1].

D. Babayeva kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda innovatsion multimedia texnologiyalarini alohida ta'kidlagan: "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuterli o'yin dasturlaridan foydalanish tarbiyalanuvchilarda bir qator ijobiy sifatlarning shakllanishi va mustahkamlanishiga imkoniyat yaratadi: o'z qobiliyati va iqtidorini namoyish etish imkonini beradi, mustaqil harakat qilishga zamin yaratadi, muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi, o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantiradi, tarbiyalanuvchilarda obrazli tasavvur va obrazli fikrlash rivojlanadi, nutq, kreativ fikrlash va kognitiv qobiliyatlar rivojlanadi" [2]. Bundan tashqari, D. Babayeva [3] kognitiv qobiliyatni STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida rivojlantirish samarali deb yozgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlarga tayanadi. Ushbu yondashuvlar bolaning kognitiv rivojlanishini uning individual xususiyatlari, faoliyati va ijtimoiy-pedagogik muhiti bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish usullaridan foydalaniladi. Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, ota-ona va tarbiyachilar so'rovi, diagnostik topshiriqlar hamda pedagogik-psixologik eksperiment qo'llaniladi.

Kognitiv moslashuvchanlikni baholashda bolaning faoliyat qoidasini o'zgartira olishi, diqqatni bir topshiriqdan boshqasiga ko'chira olishi, yangi ko'rsatmalarni qabul qilishi, oldingi strategiyadan voz kechib, muqobil strategiyani tanlashi va muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topishi asosiy diagnostik mezonlar sifatida belgilanadi.

Kognitiv moslashuvchanlikni umumlashtirib, maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikka ta'sir

qiluvchi omillarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Individual-psixologik omillar — diqqat, xotira, inhibitiv nazorat, motivatsiya, emotsional boshqaruv;
2. Pedagogik omillar — ta'lim metodlari, o'yin, muammoli topshiriqlar, individual yondashuv;
3. Ijtimoiy-psixologik omillar — tarbiyachi va bola munosabati, tengdoshlar bilan hamkorlik, oilaviy va guruhdagi psixologik muhit.

Pedagogik-psixologik omillarni aniqlashda rivojlantiruvchi ta'lim muhiti, o'yin faoliyati, pedagogik muloqot, individual yondashuv, emotsional-psixologik muhit, bolaning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash va muammoli vaziyatlardan foydalanish kabi ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, kognitiv moslashuvchanlik darajasi bilan pedagogik-psixologik omillar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolada kognitiv moslashuvchanlikning rivojlanganligi faqat yakuniy mahsulot sifati bilan belgilanmaydi. Bolaning topshiriq shartidagi o'zgarishni sezishi, oldingi usulning nomuvofiqligini anglashi, bir nechta variantni taklif etishi, tanlovini izohlashi, yechimni amalda tekshirishi va natijaga ko'ra tuzatish kiritishi asosiy jarayonli ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bu holat diagnostikada faoliyat mahsuloti bilan birga, uni yaratish jarayoni va bolaning izohlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Kognitiv moslashuvchanlikning rivojlanishida ijro funksiyalari, diqqat, ishchi xotira, inhibitiv nazorat, motivatsiya, emotsional boshqaruv va nutqiy rivojlanish muhim ahamiyatga ega. Bola avvalgi harakat usuli samara bermayotganini anglab, yangi strategiyani tanlay olishi kognitiv moslashuvchanlikning muhim ko'rsatkichidir.

Kognitiv moslashuvchanlikni pedagogik jihatdan rivojlantirishda tarbiyachi bir xil topshiriqni turli usullarda bajarish, qoidalarni bosqichma-bosqich o'zgartirish, "Boshqacha qanday qilish mumkin?", "Agar qoida o'zgarsa, nima bo'ladi?" kabi savollar berish orqali bolaning moslashuvchan fikrlashini rag'batlantirishi mumkin.

Kognitiv moslashuvchanlik psixologik jihatdan idrok, diqqat, ishchi xotira, tormozlovchi nazorat, tafakkur va refleksiv boshqaruvning funksional birligida namoyon bo'ladi. Pedagogik jihatdan esa u o'zgaruvchan shartli topshiriqlar, mazmunli tanlov, muammoli vaziyat, mustaqil sinov, xatoni tahlil qilish va fasilitativ ko'mak vositasida rivojlantiriladi. Shu sababli mazkur hodisani faqat tabiiy yosh rivojlanishining natijasi sifatida emas, balki maxsus tashkil etilgan ta'limiy faoliyatda shakllantiriladigan sifat sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv moslashuvchanligining asosiy pedagogik-psixologik omillari

	Pedagogik- psixologik omil	Mazmuni
1	Rivojlantiruvchi ta'lim muhiti	Bolaga turli topshiriqlarni bajarish, tajriba qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatining yaratilishi.
2	O'yin faoliyati	Rolli, qoidali va didaktik o'yinlar orqali bolaning qoidalarni almashtirishi, strategiyasini o'zgartirishi va yangi vaziyatga moslashishi.
3	Pedagogik muloqot	Tayyor javob berish o'rniga bolaning mustaqil ravishda turli yechimlarni izlashiga sharoit yaratish.
4	Ijro funksiyalarini rivojlantirish .	Inhibitsiya, ishchi xotira, rejalashtirish va kognitiv almashtirishni rivojlantirish
5	Individual yondashuv Emotsional xavfsizlik	Bolaning yosh, individual-psixologik xususiyatlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olish. Xatodan qo'rqmay sinab ko'rish, yangi strategiyalarni qo'llash va fikrini erkin ifodalash uchun ijobiy psixologik muhit yaratish.
6	Ijtimoiy o'zaro ta'sir Ijodiy faoliyat	Tengdoshlar bilan hamkorlik, turli fikrlarni tinglash va boshqa nuqtai nazarni hisobga olish. Rasm chizish, konstruksiya, hikoya tuzish va boshqa faoliyatlarda bir nechta variant yaratishga undash.

Jadvalda kognitiv moslashuvchanlikning tarkibiy xususiyatlari bolaning ichki psixologik imkoniyatlari hamda ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik ta'sirlar birligida yoritildi. Mazkur xususiyatlar o'zaro aloqador bo'lib, ularning biri yetarli darajada rivojlanmasligi faoliyatning umumiy moslashuvchanligiga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, bola

muqobil yechimlarni bilishi mumkin, biroq avvalgi harakatni to‘xtata olmasa, yangi usulga o‘tish yuz bermaydi. Shuningdek, boshqa strategiyani tanlashning o‘zi ham yetarli emas: bola uning natijasini tahlil qilishi va zaruratga ko‘ra faoliyat rejasini qayta tuzishi lozim.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikning shakllanishi bolaning bilish jarayonlari, mustaqil fikrlashi va o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini belgilovchi muhim psixologik-pedagogik jarayonlardan biridir. Tadqiqot natijalarini nazariy tahlil qilish asosida kognitiv moslashuvchanlik diqqatni ko‘chirish, ishchi xotira, inhibitiv nazorat, kognitiv almashtirish, muammolarni turli usullar orqali hal qilish va yangi vaziyatlarga moslashish kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar majmuasidan tashkil topishi aniqlandi. Mazkur qobiliyatning rivojlanishida pedagogik va psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti, o‘yin faoliyati, muammoli vaziyatlarni tashkil etish, pedagogik muloqot, individual yondashuv, bolaning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash hamda ijobiy emotsional muhit kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarga tayyor yechimlarni taqdim etishdan ko‘ra, ularni turli strategiyalarni izlash, qoidalarni o‘zgartirish, muqobil fikrlarni ko‘rib chiqish va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Kognitiv moslashuvchanlikni tizimli ravishda rivojlantirish bolaning keyingi ta’lim faoliyatiga tayyorgarligi, muammoli vaziyatlarni samarali hal qilishi va ijtimoiy muhitga moslashuvini qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik-psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi / I. V. Grosheva, Sh. Sh. Mirziyoyeva, L. G. Yevstafyeva, D. T. Maxmudova, Sh. B. Nabixanova, S. V. Pak, V. A. Nazarova, M. R. Isxakova, N. F. Abdunazarova.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – 2019. – URL: https://lex.uz.

3. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 192 p.

4. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Национальное образование, 2019. – 368 с.

5. Qodirova F. R., Toshpo‘latova Sh. Q., Kayumova N. M., A’zamova M. N. Maktabgacha pedagogika: darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 688 b.

6. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – 288 b.

7. Babayeva D. R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi: darslik. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 432 b.